

Излаш



[O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining TUZILMASI *](#)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.06.2018 yildagi 466-son

Кучга кириш санаси

25.06.2018

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA QO'LLAB-QUVVATLASH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son [Farmoni](#) ijrosini ta'minlash, yurtimizda Qur'on ilmi, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son [Farmoniga](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita (keyingi o'rinlarda Din ishlari bo'yicha qo'mita deb ataladi) hamda O'zbekiston musulmonlari idorasi muassisligidagi diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan yetakchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblangan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi (keyingi o'rinlarda Akademiya deb ataladi) tashkil etilgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar Akademiyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

Qur'on ilmlari, hadisi sharif, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, islom tarixi, manbashunosligi va falsafasi kabi diniy ta'lim yo'nalishlari, dinshunoslik, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar, ziyorat turizmi hamda mumtoz sharq adabiyoti singari dunyoviy ta'lim yo'nalishlar va mutaxassisliklari bo'yicha bakalavrlar va magistrilar, shuningdek, ushbu sohada chuqur tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash;

respublikadagi barcha islom ta'lim muassasalari faoliyatini o'quv-me'yoriy va o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlash hamda muvofiqlashtirish;

islom dinining asl mohiyatini va insoniyatni ezgulikka eltuvchi din ekanligini ilmiy asoslangan holda teran o'rganish hamda targ'ib etish;

kadrlar tayyorlash jarayoniga yetuk mutaxassislar va o'qituvchilarni jalb qilish orqali ilmfan hamda ta'limning o'zaro integratsiyasini chuqurlashtirish;

o'qitishning zamonaviy uslub va metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng joriy etish asosida ta'lim sifatini oshirish;

ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha diniy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy yo'nalishlardagi ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarni tayyorlash va nashr qilish, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog'ida ta'lim resurslarini yaratish va muntazam yangilab borish;

islom olamida yuzaga kelayotgan dolzarb masalalar, zamonaviy siyosiy jarayonlarga oid ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish;

mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan va xorijiy oliy diniy ta'lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish;

malakali xorijiy mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, shuningdek, Akademiya mutaxassislarini nufuzli xorijiy oliy diniy ta'lim va ilmiy muassasalarga malaka oshirish hamda tajriba orttirish uchun yuborish, talabalarning akademik almashinuvini yo'lga qo'yish.

3. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining tuzilmasi [ilovaga](#) muvofiq ma'qullansin.

Akademiya rektoriga, zarur hollarda, Din ishlari bo'yicha qo'mita va O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan kelishgan holda Akademiya tuzilmasiga xodimlarning umumiy cheklangan soni hamda mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

4. Belgilansinki:

Din ishlari bo'yicha qo'mita va O'zbekiston musulmonlari idorasi Akademiya faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

Akademiya o'z faoliyatida bevosita Din ishlari bo'yicha qo'mita va O'zbekiston musulmonlari idorasi oldida hisobdordir;

Akademiyaning ixtisoslashgan maktab, akademik litsey, bakalavriat va magistratura bosqichlari bitiruvchilariga beriladigan davlat namunasidagi hujjatlar (shahodatnoma yoki diplom) O'zbekiston Respublikasida muayyan mutaxassisliklar bo'yicha tegishli umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim to'g'risidagi hujjat deb e'tirof etiladi;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Akademiyaning bakalavriat va magistraturasiga qabul qonunchilik hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan davlat grantlari va to'lov-kontrakt asosida qabul kvotalari asosida amalga oshiriladi;

(4-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Akademiya magistraturasiga oliy ta'lim muassasalarining kamida bakalavr darajasi diplomiga ega bo'lgan hamda Akademiyada tayyorlanadigan mutaxassisliklar ixtisosligiga mos keladigan yo'nalishlarni bitirgan O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar fuqarolari qabul qilinadi.

Akademiya bitiruvchilariga umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida sohaga tegishli fanlar bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beriladi.

5. Akademiya faoliyati quyidagi manbalar hisobiga moliyalashtirilishi inobatga olinsin:

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari;

to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

muassislar tomonidan ajratiladigan mablag'lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy va donor tashkilotlarning grantlari;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

(5-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

6. Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi:

a) bir oy muddatda:

Akademiya ustavini tasdiqlash, shuningdek, uni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish choralarini ko'rsin;

Toshkent islom universiteti va O'zbekiston islom akademiyasi negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etilganligi munosabati bilan ularning professor-o'qituvchilari va xodimlarini attestatsiyadan o'tkazsin;

b) Toshkent islom universitetida tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar 2018/2019 o'quv yilidan boshlab Akademiyada tashkil etilayotgan ta'lim yo'nalishlari (ziyosat turizmi, xalqaro munosabatlar, mumtoz sharq filologiyasi, islom tarixi va manbashunosligi)ning tegishli ravishda 2, 3 va 4-kurslarida o'qishni davom ettirishlarini ta'minlasin.

v) O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda:

attestatsiya natijalari bo'yicha lavozimidan ozod qilinadigan xodimlarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa tashkilotlarga mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirilishiga ko'maklashsin;

Akademiyada tayyorlanadigan mutaxassisliklar uchun malaka talablarini belgilangan tartibda ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

7. Belgilab qo'yilsinki:

Toshkent islom universitetining tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olib, uni 2017/2018 o'quv yillarida bitirayotgan 4-kurs bakalavriat bosqichi hamda 2-kurs magistratura bosqichi talabalariga o'rnatilgan tartibda tegishli yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha Toshkent islom universitetining bakalavrluk va magistrlik diplomlari beriladi;

Toshkent islom universitetining o'qishni boshqa oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish istagini bildirgan 2 va 3-kurs talabalarining o'qishlarini ko'chirish Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2017-yil 20-iyundagi 393-son qaroriga muvofiq, ular tahsil olgan davlat granti yoki to'lov-kontrakti asosidagi ta'lim shaklini saqlab qolgan holda amalga oshiriladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning asoslangan hisob-kitoblariga binoan O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturining 2019-yil va keyingi yillar uchun mo'ljallangan parametrlarini shakllantirishda Akademiyaning bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash hamda jihozlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg'armasi hisobiga mablag'lar ajratilishini nazarda tutsin.

9. Toshkent shahar hokimligining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi Akademiya uchun quriladigan va unga operativ boshqaruv huquqi asosida bepul beriladigan

[O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining TUZILMASI *](#)

binolarni rekonstruksiya qilish, mukammal (kapital) ta'mirlash hamda jihozlash bo'yicha buyurtmachi etib belgilansin.

Bosh loyiha va bosh pudratchi tashkilotlar belgilangan tartibda tender yoki tanlov o'tkazish natijalari asosida aniqlansin.

10. Toshkent shahar hokimligi Akademiyaning respublikaning boshqa hududlaridan kelib ta'lim olayotgan talabalarining turar joyga bo'lgan ehtiyojini inobatga olib, Akademiyaga yaqin bo'lgan hududdan talabalar turar joyi uchun mos bino ajratish yuzasidan bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan birgalikda:

yetakchi xorijiy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari professor-o'qituvchilari va mutaxassislarini Akademiyada ma'ruza o'qish, ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazishga jalb qilish;

Akademiya professor-o'qituvchilarini xorijiy davlatlarning ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalariga ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish, malaka oshirish hamda tajriba orttirish uchun yuborish choralarini ko'rsin.

12. Quyidagilar:

Oldingi tahrirga qarang.

2022/2023 o'quv yilidan boshlab Akademiyaga talabalar ta'lim shaklidan qat'i nazar, dastlabki imtihon ("Dinshunoslik" va "Islomshunoslik" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun), kasbiy (ijodiy) imtihon hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlari orqali qabul qilinsin. Bunda, kasbiy (ijodiy) imtihon O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan ta'lim yo'nalishlari ro'yxati bo'yicha o'tkazilsin.

(12-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-iyuldagi 386-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2022-y., 09/22/386/0637-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va nomli davlat stipendiyalari Akademiya iqtidorli talabalariga ham tatbiq etilsin;

Akademiyaning bakalavriat va magistratura bosqichlarini bitirgan talabalar o'z ixtisosligi bo'yicha davlat hamda nodavlat notijorat tashkilotlariga ishga qabul qilinishida davlat ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan teng huquqqa ega bo'ladilar, ularga nisbatan Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Toshkent islom universiteti bitiruvchilarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 2003-yil 11-avgustdagi 347-son qarori talablari qo'llanilsin;

Akademiyaga 3 ta, shu jumladan 1 ta xizmat, 1 ta navbatchi va 1 ta maxsus avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratilsin.

13. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi Akademiya faoliyatini rivojlantirish, ilmiy-pedagogik hamkorlik o'rnatish yuzasidan xizmat safarlariga boradigan Akademiya rahbarlari va xorijiy mutaxassislariga hamda ushbu muassasa tomonidan kelgusida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etadigan yuqori martabali mehmonlarga Akademiyaning buyurtmanomalariga muvofiq Islom Karimov nomidagi "Toshkent" xalqaro aeroportining VIP va SIP zallari orqali belgilangan tartibda xizmat ko'rsatilishini ta'minlasin.

14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Akademiyani saqlash xarajatlarini 2018-yilda ijtimoiy soha bo'yicha tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida ajratsin, 2019-yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bir oy muddatda:

Akademiya bilan birgalikda "Islomshunoslik" ta'lim sohasi va unga taalluqli yo'nalishlarni (bakalavriat) hamda mutaxassisliklarni (magistratura) joriy etish va uni Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga kiritish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin;

Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan birgalikda Akademiyada o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun salohiyatli va yuqori malakali professor-o'qituvchilarni jalb etish, Akademiyani o'quv rejalari va dasturlari hamda o'quv-metodik qo'llanmalar va materiallar bilan ta'minlashda amaliy yordam ko'rsatsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Akademiya faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida Akademiyani aloqa vositalari, keng qamrovli Internet tarmog'i va boshqa texnik vositalar bilan belgilangan tartibda ta'minlash choralarini ko'rsin.

17. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A. Abduxakimov, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi J.K. Akramov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Madaniyat, san'at va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 22-iyun,
466-son


O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining TUZILMASI *

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining

TUZILMASI*



* Академија (факултетлар, кафедралар ва бoшқа таркибий бo'линмалар) xodimларининг cheklangan umumiy soni oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq aniqlanadi.

** Академијанин бudgeдан tashqari (to'lov-kontraktlar hisobidan tashqari) mablag'ları hisobidan ta'minlanadi.

(ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 693-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020-y., 09/20/693/1476-son)

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2018-y., 09/18/466/1386-son; 22.11.2019-y., 09/19/922/4050-son; 06.06.2020-y., 09/20/358/0725-son, 07.11.2020-y., 09/20/693/1476-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son, 15.07.2022-y., 09/22/386/0637-son)